“Autosanoat Agro Lizing” MChJ Bosh direktorining

MUROJAATI

Korrupsiya har qanday davlat va jamiyatning siyosiy-iqtisodiy rivojlanishiga jiddiy zarar yetkazib, inson huquq va erkinliklarining poymol bo‘lishiga olib keladi. Shu sababli unga qarshi kurash xalqaro ahamiyat kasb etib, jahon siyosatining muhim masalalari qatoridan joy olgan.

Bejizga emas, Davlatimiz rahbari ham ushbu illatning naqadar xavfli ekanligini har safar takror va takror ta’kidlaydilar.

Davlat tizimini ichidan yemiradigan, ijtimoiy barqarorlik kushandasi bo‘lgan korrupsiya balosiga qarshi, byurokratiyaning har qanday ko‘rinishlariga, odamlarni mensimaslik, mahalliychilik va guruhbozlik illatlariga qarshi barchamiz keskin kurash olib borishimiz kerak.

Darhaqiqat, davlat xizmatchisining eng avvalo yuragi, vijdoni va qo‘li toza, ko‘ngli ochiq, aql va zakovat sohibi bo‘lsa, u albatta el-yurt ishonchini, mehrini va e’tiborini qozona oladi. Shunday ekan, go‘zal va betakror yurtimizning bugungi va ertangi kuni, yorug‘ kelajagi uchun avvalambor o‘zimiz mas’ul ekanligimizni unutmaylik.

Bizning tashkilotda ham korrupsion holatlarni oldini olish, manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik borasida qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Qishloq xo‘jaligi texnika va agregatlarini lizing asosida beruvchi bizning Jamiyatning kundalik faoliyatidagi asosiy yo‘nalishidan biri sifatida Komplayens amaliyoti bo‘lib kelmoqda va kelgusida ham shunday bo‘lib qoladi.

Hozirgi kunda, Komplayens xizmati hamda Jamiyat xodimlari bilan birgalikda qishloq xo‘jaligi texnikalarini lizing oluvchilarga yetkazib berishdek muhim vazifani bajarib kelinmoqda. Biz ushbu yo‘nalishdagi hozirgi vaziyatni yanada yaxshi tomonga o‘zgartira olamiz va o‘zgartirmoqdamiz.

Shu bilan birga, biznes hamkorlarni tanlash, baholash va tasdiqlashning puxta jarayoni “Autosanoat Agro Lizing” MChJ tomonidan korrupsiyaga qarshi qonunchilik buzilishi xavfini kamaytirishning muhim vositasi sanaladi.

Buning uchun esa, barchani tashvishga solib kelayotgan Korrupsiya bilan kurashish uchun tashkil etilgan Komplayens ichki nazorat xizmati xodimi bilan hamkorlikda ishlar tashkil etilgan.

Kelgusida, bizga yuklangan mas’uliyatni to‘liq anglagan holda korrupsiyaning har qanday ko‘rinishi va holatlariga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha barcha choralarni ko‘ramiz.

Shuningdek, hamkasblar va hamkorlarimizni ish yuritishda xalqaro standartlarga hamda korrupsiyaga qarshi tamoyillarga rioya qilishga va shubha tug‘ilgan taqdirda, ehtimoliy qonunbuzarliklar haqida bizga xabar berishga yana bir bor chorlab qolamiz.

Hurmat bilan,

«Avtosanoat Agro Lizing» MChJ

Bosh direktori O.Sayfullayev